

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10782785>

EGOISTIK XULQ-ATVORNING MOTIVATSION ASOSLARI

Karayeva Yulduz Xushbakovna

TerDU psixologiya kafedrasи v/b dotsenti,
psixologiya bo‘yicha falsafa doktori PhD,

Email: karayevayulduz@mail.ru

Annotatsiya: Bugungi kunda shaxsni o‘rganish uning hulq-atvor xususiyatlarining motivatsion asoslarini o‘rganish bilan bog‘liq masala bo‘lib, bugungi kunda zamonaviy psixologiya fanining o‘rganish ob’ektiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan psixologik tadqiqotlar oldiga birinchi navbatda hulq atvorning motivatsion asoslari, unga ta’sir etish omillarni har tomonlama o‘rganish vazifasini qo‘ymoqda. Ushbu maqolada egoizm motivatsion holat sifatida olimlar tomonidan o‘rganilgan nazariy qarashlar tahlil etilgan bo‘lib va eksperimental jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: egoizm, altruism, egotsentrizm, egoistik shaxs, hulq-atvor, shaxsning egoistik yo‘nalganligi, o‘smirlilik davrida egoizm

MOTIVATION BASIS OF EGOTIC BEHAVIOR

Abstract: Today the study of personality is an issue related to the study of the motivational basis of his behavioral characteristics, and today it is becoming an object of study of modern psychology. From this point of view, psychological researches are faced with the task of comprehensively studying the motivational bases of behavior and the factors influencing it. In this article, the theoretical views of egoism as a motivational state, studied by scientists, are analyzed and studied experimentally.

Key words: egoism, altruism, egocentrism, egoistic personality, behavior, egoistic orientation of personality, egoism in adolescence.

KIRISH: Egoizm shaxsning motivatsion-mazmuniy asosiy xislatlaridan biri bo‘lib, hozirgi vaqtgacha eng kam o‘rganilgan va ta’riflangan xususiyatlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Jamiyatda shaxs va uning hulq atvorini o‘rganish barcha ijtimoiy fanlar qatorida psixologiya fanining ham asosiy masalalaridan hisoblanadi. Shaxsdagi

salbiy deb qaraladigan xususiyatlardan biri -egoizm bo‘lib, bu boshqa odamlar va ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlari va manfaatlaridan qat’iy nazar, insonning o‘z shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish istagidir, deya ta’kidlanadi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy psixologiyada “egoizm” atamasi ko‘p qo‘llanilmaydi, bunga uning mohiyati to‘g‘risida tasavvurlar ko‘p ma’noliligi sabab bo‘lishi mumkin [6:207].

Egoizm- bu insonning faqat o‘z manfaati yoki faqat o‘z foydasi uchun harakatlanishini tavsiiflovchi motivatsion holatidir.

Egoist esa - bu o‘z maqsadlariga erishish uchun boshqa odamlarning his-tuyg‘ulari, manfaatlari va huquqlarini e’tiborsiz qoldiradigan, shuningdek, o‘z xohish-istiklarini amalga oshirish uchun belgilangan qoidalarni buzishga, boshqalardan foydalanishga yoki hatto ularga zarar yetkazishga moyil bo‘lgan kishi. Biroq, egoizm nafaqat shaxsning motivatsiyasi va xarakterida namoyon bo‘ladi, balki u o‘zini hayotiy tamoyil va falsafiy ta’limot sifatida e’lon qiladi. Axloqiy egoizm nazariyasiga ko‘ra, inson o‘ziga nisbatan ustun burchga ega, shuning uchun uchun faqat o‘z manfaatlari muhim [5:105]. U boshqalarni faqat o‘zining “Men”i doirasi bilan cheklaydi, aksincha boshqalar haqida qayg‘uradi va o‘zini butunning bir qismi deb biladi. Boshqacha qilib aytganda, egoizm asosan maqsadga qaratilgan xulq-atvor sohasida uchraydi. Hozirgi kunda psixologiya fanida ikki qarama-qarshi kontseptsiyalar mavjud bo‘lib, biri egoizmning biologik tarafini ta’kidlasa, ikkinchisi esa – shaxs egoizmini shakllanishida ijtimoiy omillar ustuvorligini uqtirib o‘tadi.

Egoizm o‘z nazariyasiga ko‘ra, inson o‘ziga nisbatan ustun burchga ega, shuning uchun unga faqat o‘z manfaatlari muhim [2:14-23]. U boshqalarni faqat o‘zining “men”i doirasi bilan cheklaydi, boshqalar u haqida qayg‘urishlarini hoxlaydi. Boshqacha qilib aytganda, egoizm asosan o‘z ehtiyojlarini yuzaga chiqarishga asoslangan maqsadga qaratilgan xulq-atvor sohasida uchraydi.

NATIJALAR: Psixolog K.Muzdibaevning fikricha, egoizmga moyillik shaxsning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, inson yoshi ulg‘aygan sari, egoizmga moyillik darajasi ham pasayib ketadi [1:464]. Hozirgi kunda psixologiyada shaxsning

egoistik hulq ko‘rinishlarini o‘rganish bo‘yicha adabiyotlar yetarli emas, uni eksperimental o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj esa psixodiagnostik metodikalarga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Ye.P.Ilinning “Psixologiya pomoshchi. Altruizm, egoizm, empatiya” nomli kitobida egoizmni o‘rganishga oid bo‘lgan bir necha metodikalar berilgan bo‘lib, ulardan O.F.Potyomkinaning “Shaxsning motivatsion ehtiyojlar sohasidagi ijtimoiy psixologik ustanovkalarni diagnostika qilish” (Altruizm, egoizm shakalalari asosida), “Altruizm – Egoizm” testi, K.Muzdibaevning “Dispozitsion egoizm shkalasi” shular jumlasiga kiradi[4: 576].

Egoizm va shaxs xususiyatlari orasidagi bog‘lanishlar

(Mann-Uitni mezoni asosida)

	Egoizm	Ekstraversiya	Neyrotizm	Yolg‘on (Ayzenk)	Vijdonlilik	Da‘vogarlik darajasi	O‘z-o‘zini baholash	Qabul-qilish	Hamkorlik	Simbioz	Avtoritar	Kichik omadsiz	Altruizm
Egoizm	1												
Ekstroversiya	- ,141*	1											
Neyrotizm	,127	,132	1										
Yolg‘on (Ayzenk bo‘yicha)	,160*	- ,131	- ,347**	1									
Vijdonlilik	- ,332**	,182**	,124	,065	1								
Da‘vogarlik darajasi	-,014	,099	,045	,098	,122	1							
O‘z-o‘zini baholash	- ,228*	,186**	-,019	,063	,137*	,168*	1						
Qabul qilish	,131	,074	,269**	-,069	-,045	- ,142*	,057	1					
Hamkorlik	- ,134*	-,042	,003	-,014	-,042	,041	-,050	- ,276**	1				
Simbioz	- ,192**	-,013	-,072	,001	-,019	-,023	- ,159*	- ,175**	,378**	1			
Avtoritar	-,108	-,128	-,126	,043	-,090	,106	- ,198**	- ,414**	,436**	,383**	1		
Kichik omadsiz	,160*	,070	,102	,136*	-,127	-,104	,071	,678**	- ,369**	-,102	- ,244**	1	
Altruizm	- ,268**	,238**	,155*	- ,205**	,339**	,058	,265**	,041	,108	,109	,019	- ,090	1

* -p≤ 0.05 ; ** -p ≤ 0.01

MUHOKAMA: Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, ekstrovertlik shunchalik kam bo'ladi, ya'ni introvert insonlar ko'proq egoist bo'lishadi ($r=-0,141$; $p\leq0,05$). Bizga ma'lumki, introvertlarning «Men»i ichkariga o'zlariga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ular ko'proq o'zlarini o'ylaydilar.

Egoizm va yolg'onchilik orasida musbat bog'lanish aniqlandi ($r=0,160$; $p\leq0,05$). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, yolg'onchilik ham shunchalik ko'p bo'ladi. Egoist o'smirlar ko'proq yolg'onchi bo'lishadi, ular ko'proq o'zlarining foydalariga, vaziyatdan chiqish uchun himoya mexanizmi sifatida yolg'ondan ko'proq foydalanadilar.

Egoizm va vijdonlilik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,332$; $p\leq0,01$). Shaxs qanchalik ko'p vijdonli bo'lsa, unda egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. Vijdonlilik axloqiy kategoriya bo'lib, insonning oliy hislari bilan bog'liq.

Egoizm va o'z-o'zini baholash orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,228$; $p\leq0,05$). Shaxsda egoizm qanchalik yuqori bo'lsa, u o'zini shunchalik past baholaydi. O'zini past baholash, odam o'zini boshqalardan ustun emasligini tan olish, boshqalarning manfaatlari uchun o'z manfaatlarini e'tiborsiz qoldirishi, o'zini har tomonlama, sababsiz qurbon qilishidir.

Egoizm va hamkorlik orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,134$; $p\leq0,05$). Ota-onal farzandi bilan qanchalik ko'p hamkorlikda faoliyat yuritsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. «Kooperatsiya» – ota-onal-bola munosabatlari tizimidagi o'zaro hamkorlikni anglatadi. Bunda ota-onal o'z farzandining hayoti bilan qiziqadi va doim uni qo'llab-quvvatlaydi. Demak, ota-onal farzandining o'qishi, qiziqishlari, do'stlari bilan qiziqib hamkorlikda faoliyat yuritsa, shaxsda shunchalik egoizm kam shakllanar ekan.

Egoizm va simbioz orasida manfiy bog'lanish aniqlandi ($r=-0,192$; $p\leq0,01$). Ota-onal farzandi bilan qanchalik ko'p simbiotik munosabatda bo'lsa, egoizm shunchalik kam bo'lar ekan. «Simbioz» – mazkur shkalaga tegishli savollar orqali ota-onaning o'z farzandi bilan bir tan-u, bir jon bo'la olishi nazarda tutiladi. Ota-onaning farzandiga

doimo g‘amxo‘rlik qilishi, u haqida doimo qayg‘urishi, farzandda egoistik xulq-atvorning rivojlanmasligiga olib kelar ekan.

Egoizm va «kichik omadsiz» shkalasi orasida musbat bog‘lanish aniqlandi ($r=0,160$; $p\leq0,05$). Ota-onal farzandi bilan qanchalik “kichik omadsiz” munosabatida bo‘lsa, egoizm shunchalik ko‘p bo‘lar ekan. «Kichik omadsiz» – bunda ota-onal o‘z farzandining muvaffaqiyatsizligini qanday qabul qilishi nazarda tutiladi, ya’ni ota-onal o‘z farzandini boricha qabul qiladimi yoki uni doim tanqid qilib qabul qiladimi, shu holat bo‘yicha ota-onaning bolaga emotsional munosabati aniqlanadi.

Egoizm va altruizm orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi ($r=-0,268$; $p\leq0,01$). Shaxsda qanchalik egoizm kuchli bo‘lsa, unda altruizm shunchalik kam bo‘ladi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, jamiyatda shaxsning ma’naviy kamoloti hamma vaqt ham muhim masalalardan bo‘lib kelgan. Shaxs psixologiyasini o‘rganar ekanmiz, uning ma’lum bir xususiyatlari va hulq ko‘rinishlarini bevosita kuzatish orqaligina o‘rganib bo‘lmashligiga ishonamiz, chunki bu xususiyatlarda turg‘unlik, barqarorlik va izchillik yo‘q. Shu bilan birga, turli xil ilmiy yo‘nalish vakillari shaxs xususiyatlari tushunchasini turli xil yondoshuvlar asosida tushuntiradilar, biz esa o‘zimizning tadqiqot ishimizda egoizmni turli yosh davrlarda namoyon bo‘lishi, darajalarini tajribalar asosida o‘rgandik va keyingi tadqiqotimizda egoizm yuqori ko‘rsatkichdagi sinaluvchilar bilan psixokorreksion dastur asosida o‘rganishni vazifa qilib belgiladik.

ADABIYOTLAR:

1. Bojovich L.I. *Lichnost i yeyo formirovanie v detskom vozraste* Moskva: Prosvechenie, 1968. 464 b.
2. Yershova R.V. *Issledovanie organizovannosti v psixologii*. Vestnik RUDN 2007, № 2, 14—23 b.
3. Ilin E.P. *Psixologiya obucheniya i mejlichnostnykh otnosheniy*. Peterburg: Piter, 2014. 576 b.
4. Levit L.Z. *Lichnostno-orientirovannaya kontseptsiya schastya*. Vestnik Odesskogo natsionalnogo universiteta. 2012, № 8, 105—177 b
5. Petrov E.F. *Egoizm: filisofsko-psixologicheskiy ocherk* M.: Nauka, 1969. 207 b